

2020-yil 10 va 24-dekabr kunlaridagi Toshkent - Frankfurt - Toshkent qatnovlarining bekor qilinishi

2020 2 Dekabr

SARS-CoV-2 koronavirusi bilan kasallanganlar sonining ko'payganligi va Germaniyada karantin cheklovlari uzaytirilganligini hisobga olgan holda, "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi Germaniyaga parvozlar qisqartirilganligini va shunga muvofiq 2020-yil 10 va 24-dekabr kunlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan HY231 / 232 - Toshkent - Frankfurt - Toshkent qatnovlari bekor qilinganligi haqida xabar berishga majbur.

Aviakompaniya bekor qilingan qatnovlardagi yo'lovchilarga aviachiptalarni keyingi qatnovlarga qayta rasmiylashtirish yoki jarimaga tortilmagan holda "Uzbekistan airways sales" filiali kassalarida yoki chiptalar sotib olingan joyda aviachiptalar narxini qaytarib berilishini taklif qiladi.

Noqulayliklar uchun chin dildan uzr so'raymiz.

Batafsil ma'lumotni aviakompaniyaning +998781400200 raqamli Yagona aloqa markazidan olishingiz mumkin.